



ADVOKATLARNING MALAKA OSHIRISHIDA ZARURIY KO'NIKMALAR: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA USTUVOR YO'NALISHLAR

To'ychiyeva Malika Botir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich tayanch
doktoranti, Sud hokimiyati, advokatura va huquqni
muhofaza qiluvchi organlar sho'basi o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.22684382>

Annotatsiya. Bugungi kunda advokatlar malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlar va muqobillik tamoyili asosida takomillashtirish, advokatlarning zamonaviy kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ko'rsatilayotgan yuridik yordam sifatini oshirishning muhim sharti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Huquqiy tartibga solishning muntazam takomillashib borishi, sud-amaliyotidagi o'zgarishlar, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning advokatlik faoliyatiga jadal kirib kelishi bugungi kun advokatidan nafaqat yuqori darajadagi huquqiy bilimlarni, balki keng qamrovli amaliy, raqamli, kommunikativ va etik kompetensiyalarni ham egallashni talab etmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy advokat uchun zarur bo'lgan asosiy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar tahlil qilinib, ularning advokatlar malakasini oshirish tizimidagi o'rni ochib beriladi. Tadqiqot natijasida zamonaviy advokatlar malakasini oshirish tizimining ustuvor yo'nalishlarini belgilash va ularni milliy amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-nazariy hamda amaliy takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar. advokat, malaka oshirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish, kasbiy kompetensiya, xalqaro standartlar, muqobillik tamoyili, kasbiy etika, raqamli kompetensiya, sun'iy intellekt, yuridik texnologiyalar.

Bilamizki, uzoq asrlardan buyon advokatlarning jamiyat hayotida tutgan o'rni beqiyosdir. Qonunchilikka muvofiq malakali yuridik yordam advokat tomonidan ko'rsatilib, ma'muriy, fuqarolik va iqtisodiy ishlarda vakillikni amalga oshirsa, jinoyat ishlarida himoyachi sifatida namoyon bo'ladi. Advokat tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordam qamrovi keng bo'lib, bunga qonunchilikka muvofiq, huquqiy masalalar bo'yicha maslahatlar va tushuntirishlar, qonunchilik yuzasidan og'zaki va yozma ma'lumotnomalar berish, huquqiy xususiyatdagi arizalar, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni tuzish, fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy ishlari hamda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud, boshqa davlat organlarida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida vakillikni amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov bosqichida va sud himoyachi, jabrlanuvchining vakili, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar sifatida ishtirok etish, tadbirkorlik faoliyatiga yuridik xizmat ko'rsatish hamda



hakamlilik sudida va xalqaro tijorat arbitrajida (sudida) vakillikni amalga oshirishni kiritishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunida advokat o'z professional faoliyatida amaldagi qonunchilik talablariga, Advokatning kasb etikasi qoidalariga, advokatlik siri va advokat qasamyodiga rioya etishi, o'ziga yuridik yordam so'rab murojaat etgan jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning qonunda nazarda tutilgan vositalari hamda usullaridan foydalanishi shart. Bu shuni anglatadiki, ushbu majburiyatlarni bajarmaslik unga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining 2013-yil 27-sentyabrdagi II Konsferensiyasi qarori bilan tasdiqlangan Advokatning kasb etikasi qoidalariga ko'ra, advokatga nisbatan bir qator kasb-etikasi bilan bog'liq talablar qo'yilgan bo'lib, bunga advokatning kasbiy nufuzi, shaxsiy qadr-qimmatini saqlashi, advokatlarning o'z hamkasblari bilan o'zaro munosabatlari, shuningdek ishonch bildiruvchi shaxslar bilan munosabatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, boshqa davlat, jamoat tashkilotlari va o'zga tashkilotlar bilan, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi va uning hududiy boshqarmalari organlari, shuningdek malaka komissiyalari bilan munosabatlari tartibga solingan.

Ko'plab xorijiy mamlakatlarda ham advokatlarga bir qator kasb etikasi bilan bog'liq talablar qo'yilib, ularga rioya qilmaslik intizomiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda advokatlarga yangi talablar qo'yilmoqda va bu kun sayin ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Ya'ni, advokat nafaqat qonunchilikni mukammal bilishi, balki yana bir qator bilim, ko'nikma, tajriba hamda kompetensiyaga ega bo'lishi zarur.

XXI asrni sun'iy intellekt va axborot texnologiyalari asri deyishimiz mumkin. Chunki, bu hayotning barcha jabhasiga, shu jumladan odil sudlovga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odil sudlov - 2030": Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasi to'g'risida" gi Farmonida O'zbekiston Respublikasi sud tizimi 2030-yilga kelib aholining ishonchiga sazovor bo'lgan, sifatli va barqaror odil sudlovni amalga oshiradigan, inson huquqlari va erkinliklarini samarali himoya qiladigan, zamonaviy raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt asosida faoliyat yuritadigan, shuningdek, davlat hokimiyatining korrupsiyaga nisbatan mutlaqo murosasizlik, yuksak professionalizm va ochiqlik namunasi bo'lgan bo'g'iniga aylanishi lozimligi



belgilandi. Bu esa, advokatlarga ham sun'iy intellekt va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lish talabini qo'yadi. Shu sababli, advokatlar malakasini oshirishda ushbu yo'nalishga alohida ustuvorlik berish davr talabi bo'lib qolmoqda.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda, bugungi kun advokati muzokaralar olib borish, sudda ta'sirli nutq so'zlash, ishonch bildiruvchilar bilan samarali muloqot qilish, stressga bardoshlilik, xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish va shu kabi bir qator sifatlarga ega bo'lishi talab etilmoqda. Bunday ko'nikmalarni egallashda advokatlar uchun malaka oshirish kurslarining ro'li beqiyosdir. Chunki, bunday dasturlar qonunchilikka muvofiq majburiy hisoblanib, litsenziyani saqlab qolish sharti hisoblanadi. Shunday ekan, bunday dasturlarning advokatlar uchun ustuvor yo'nalishlarda tashkil etilishi muhimdir.

Y.Shigurova ta'kidlaydiki, advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordamning yuqori sifat darajasini ta'minlash samarali va maqbul malaka oshirish tizimini shakllantirmasdan turib mumkin emas. Malaka oshirish, avvalo, mutaxassislarning bilimlarini muntazam ravishda yangilab borishga, kasbiy malaka darajasiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi hamda professional vazifalarni hal etishning zamonaviy usullarini o'zlashtirish zarurati bilan bog'liq kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratiladi¹.

Biz ham yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda aytishimiz mumkinki, advokatlar uchun malaka oshirishning bir qator afzalliklari mavjud. Normativ-huquqiy hujjatlar doimiy ravishda o'zgarib borishi sababli ular o'zlarining huquqiy bilimlarini muntazam ravishda yangilab va zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mutaxassisning kasbiy qiziqishlari yillar davomida o'zgarib borishi mumkin. Bunday sharoitda malaka oshirish yuristlarga huquqning yangi yo'nalishlarini o'rganish, qo'shimcha kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va, ehtimol, o'z professional faoliyati yo'nalishini qayta ko'rib chiqish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda advokatlar malakasini oshirishda quyidagilar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda:

- qonunchilik va sud amaliyotidagi o'zgarishlar;
- kasb etikasi va professional mas'uliyat;
- raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va Legal Tech;
- kiberxavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish;
- amaliy va yumshoq ko'nikmalar.

¹ Шигурова Е.И. Формы и методы повышения квалификации адвокатами, Мир науки и образования. 2016. № 3(7). 2-с



Advokatlar uchun malaka oshirishning ahamiyatidan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, ta'lim dasturlarini yuqoridagi keltirilgan ustuvor yo'nalishlar asosida shakllantirish malakali yuridik yordam ko'rsatishda muhimdir. Shu sababli, ta'lim tashkilolari xalqaro standartlar asosida ta'lim yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqishlarini dolzarb, deb hisoblaymiz.